

TILSHUNOSLIK VA SEMIOTIKA

Rabimkulova Pokiza Xushvaxtovna*Samarqand davlat pedagogika instituti tillar fakulteti o'zbek tili va
adabiyoti yo'nalishi 1-bosqich talabasi***MAQOLA
MALUMOTI****ANNOTATSIYA:****MAQOLA TARIXI:***Received: 13.01.2026**Revised: 14.01.2026**Accepted: 15.01.2026***KALIT SO'ZLAR:***semiotika, belgi,
Ferdinand de Sossyur,
Charlz Pirs**Ushbu maqolada ijtimoiy hayotda odamlarni bir-
biri bilan munosabatda bo'lishga yordam beradigan
ishora tizimlarini tekshiradigan va izohlaydigan fan
haqida ma'lumotlar keltiriladi. Shuningdek, hozirgi
kunda odamlar o'rtasidagi ko'plab imo-ishora
tillarini yaxshiroq tushunishga yordam berish ko'zda
tutiladi.*

Tilshunoslik alohida fan sifatida 19-asrning 2-yarmida shakllangan. Tilshunoslik tilni o'rganuvchi fan, semiotika esa barcha belgi tizimlarini o'rganadigan fan. Ferdinand de Sossyur tilshunoslik fanining rivojlanishiga ulkan hissa qo'shgan olimlardan biridir. Uning kashfiyotlari ushbi fanning rivojlanishiga asos bo'ldi. Ammo Sossyurning birorta kitoblari hayot chog'ida chop etilmagan. Vafotidan keyin to'plam shaklida chop etilgan. F.de Sossyurning fandagi asosiy xizmati shundan iboratki, u birinchilar qatori tilning maurakkab hodisa ekanligini aniqlagan holda, yangi mukammal va aniq shakllangan umumiy tilshunoslik nazariyasini yaratib berdi. Tilshunoslik fanining predmetini aniqlash va uni ta'riflashga intilgan F.de Sossyurning qarashlari tilshunoslik tarixidagi muhim masalalarni hal etishda sezilarli ta'sir ko'rsatdi. F.de Sossyur fikricha, til kishilik jamiyatida bajaradigan vazifasiga ko'ra aloqa quroli, fikr ifodalash vositasidir; ijtimoiy tabiati jihatidan til madaniy-tarixiy va ijtimoiy hodisa, ichki tuzilishiga ko'ra sof belgi—ishoralar tizimidir[1;4].

Ramz tushunchasi—ko'p ma'noli. Olimlar tomonidan unga har xil ta'rif berilgan. Ayrim olimlar ramzni nimanidir almashtira oluvchi, qulaylik uchun biror narsa o'rnini egallovchi boshqa narsa deb hisoblashsa (J.Bris) boshqa bir nuqtayi nazar egalari "boshqa bir narsalarni o'zining tabiiy xususiyatlari orqali emas, balki insonlar tomonidan kelishilganlik, qabul qilinganlik asosida anglatish uchun yaratilgan moddiylik" sifatida talqin qilinadi[3;70].

Ramzlar biror narsani tasvirlash yoki ifodalash uchun qo'llanadigan belgilar.

Ularning ma'nosi yoki asosiy xususiyatlari belgilangan tarkibiy tizimlarda o'ylab topilgan bo'lishi mumkin. Ramzlar mahalliy va global darajada tasvirlanishi mumkin bo'lgan xususiy belgilar. Ramz atamasining sinonimlari:belgi, timsol. Belgi–predmetning muhim, ajralib turuvchi sifatini, ma'lum bir xususiyatini ifodalaydi. Timsol esa narsani eslatib turadi hamda ko'z o'ngimizda gavdalantirishimizga imkon beradi.

Semiotika (yoki semiologiya) belgilar sistemasini haqidagi fan bo'lib, u belgilar sistemasiga xos bo'lgan umumiy xususiyatlarni, juhatlarni o'rganadi. Semiotika belgilar nazariyasi haqidagi ta'limot sifatida belgilarni, belgilar sistemasiga kiruvchi hodisalarni, ularning tabiati, mohiyati, turlari, ko'rinishlari, amal qilishi kabilarni tekshiradi[2;187].

Semiotika belgilar nazariyasi haqidagi ta'limot bo'lib, uning muayyan yo'nalishi sifatida tilshunoslik va semiotikaning o'zaro maqsadli aloqaga, munosabatga kirishishidan tilshunoslik fanining lingvosemiotika deb ataluvchi sohasi shakllandi. Demak, til ikkilamchi belgilar sistemasini sifatida semiotikaning — lingvosemiotikaning tekshirish ob'yekti hisoblanadi, ya'ni lingvosemiotika tilning belgi tabiatiga egaligini, informatsiya uzatuvchi til birliklarining xususiyatlarini tadqiq qiladi.

Zamonaviy semiotikaning asoslari 20-asr boshlarida paydo bo'la boshladi. Amerika faylasufi Charlz Sanders Pirs (1839-1914) va shveytsariyalik tilshunos Ferdinand de Sossyur (1857-1913) deyarli bir vaqtning o'zidan bir-biridan bexabar holda zamonaviy semiotika asoslarini yaratdilar. Shveytsariyalik tilshunos Ferdinand de Sossyur zamonaviy tilshunoslikning shubhasiz asoschisi hisoblanadi. 1913-yilda vafotidan so'ng uning talabalari va hamkorlari tomonidan tahrir qilingan ma'ruza matnlari "Umumiy tilshunoslik darslari" (Cours de Linguistique Générale) nomi bilan kitob holida nashr etildi. Bu kitobida Sossyur semiologiyani "ijtimoiy hayotdagi belgilar holatini tadqiq qiluvchi" fan sohasi sifatida ta'riflagan. Sossyur ta'kidlaganidek, "til"—fikrlarni ifodalovchi belgilar tizimi va boshqa belgilar tizimi (alifbo, yozuv, harfiy belgilar) ichida eng muhimi. Sossyur lingvistik belgini tovush tasviri va tushunchasi sifatida muhokama qildi. Uning fikricha, belgilovchi (tovushli

tasvir) va ishora qiluvchi (tushuncha) har qanday tashqi ob'ektdan mustaqil bo'lib, tovush tasviri ham, tushuncha ham jamoaviy, ijtimoiy kelishuvlarga asoslanadi. Demak, "mushuk" belgisi ham mushuk tovushlarining belgisidan, ham mushuk tushunchasining ishorasidan iborat bo'lib bu ikkisi belgini tashkil qiladi[4;52-53].

Sossyur belgilarning ijtimoiy funksiyasiga e'tibor beradi. Bundan tashqari, Pirs belgini izohlovchi, ob'ekt va vakilidan tashkil topgan uchlik model sifatida izohlagan bo'lsa, Sossyur o'z yondashuvini muhim va ma'nodan iborat ikki tomonlama modelga asosladi. Aslida, ikki tadqiqotchining tasnifi bir-biriga o'xshash; Pirsning "representatum"i Sossyurning belgisiga mos keladi, lekin Sossyurdan farqli o'laroq, Pirs belgini ikki qismga ajratadi: ob'ekt va tarjimon [5;112].

Xulosa qiladigan bo'lsak, semiotika nafaqat belgi bilan, balki ma'noning shakllanish jarayoni bilan ham bog'liq. Tilshunoslik va semiotika birgalikda insonning fikrlashi, muloqoti va ma'no yaratish jarayonlarini yaxlit tizim sifatida o'rganishga xizmat qiladi. Ushbu fanlar integratsiyasi zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda, ayniqsa, lingvokulturologiya, pragmatika, diskurs tahlili va matn lingvistikasi kabi yo'nalishlarning rivojida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois tilshunoslik va semiotika o'rtasidagi uzviy aloqani chuqur o'rganish bugungi kunda dolzarb ilmiy masala bo'lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Xolmanova Z.T. Tilshunoslikka kirish.—Toshkent, 2007.
- 2.Rasulov R. Umumiy tilshunoslik. —Toshkent, 2013.
- 3.Ne'matov H, Mengliyev B, Botiriva A. Tilshunoslikning falsafiy masalalari. Monografiya "GlobeEdit" nashriyoti.— Toshkent, 2020.
- 4.Dağtaş B. Reklamı Okumak, Ankara: Ütopya Yayınevi, 2003.
- 5.Eraldemir B. Bilim ve Sanatın Işığında Değişime Denk Düşen Sanatçı Tavrı, Adana: Godol Ç.Ü. Basımevi, 1992.